

## **BIOLOGIYA DARSLARINI YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGI**

**PhD: U.B.Baxodirova,**

**S.Navruzova**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**

E-mail: [sevaranavruzova8@gmail.com](mailto:sevaranavruzova8@gmail.com)

### ***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada biologiya darslarida zamonaviy yondashuv orqali, yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan o‘qitish usullarini ishlab chiqish, ularni ta’lim jarayoniga keng tadbiiq qilish hamda o‘quvchilarda fanga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirishdan iborat.*

### ***Kalit so‘zlar***

*Innovatsion texnologiyalar, innovatsion faoliyat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.*

## **ORGANIZATION OF BIOLOGY LESSONS ON THE BASE OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND ITS EFFECTIVENESS**

### ***Abstract***

*This article aims to develop teaching methods based on new innovative technologies in biology classes through a modern approach, to widely apply them to the educational process, and to form students’ science-related knowledge, skills, and abilities.*

### ***Key words***

*Innovative technologies, innovative activity, modern pedagogical technologies.*

Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo‘lib, u narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga yo‘nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa hodisalar to‘g‘risida to‘liq va chuqur bilim olishga qaratilgan. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, hamda talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab qiladi.[1]

Ma’lumki, biologiyani o‘qitishda mavzu matnida ustunlik qiluvchi tushunchalarga ko‘ra, morfologik, anatomik, fiziologik, sistematik, immunologik, ekologik, embriologik, sitologik mazmundagi darslarga ajratiladi. Darslarning bunday guruhlariga ajratilishi talabalarda tushunchalarni shakllantirish va ko‘nikmalarni tarkib toptirish jarayonini uyg‘unlashtirish va ularni uzviy ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Ommaviy ravishda olib boriladigan mashg‘ulotlar boshqa turdagi mashg‘ulotlardan ko‘p sondagi talabalarning ishtirok etishi bilan farqlanadi. Ommaviy mashg‘ulotlar o‘zining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyasi bilan talabalarning jamoasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy mashg‘ulotlar mobaynida har-bir talaba o‘zining mustaqil fikrini bayon etishiga, o‘z fikrini himoya qila olishga, aqliy teranlikka erishadi. Shu sababli biologiya o‘qituvchisi ommaviy mashg‘ulotlarni talab darajasida tashkil etilishiga e’tiborini qaratishi lozim bo‘ladi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to‘qnashuvi va o‘zaro boyitilishi asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish va amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog‘liq. O‘qitilayotgan darslarga qanchalik ko‘p yangilik kiritilsa u shuncha qiziqarli va mazmunli o‘tadi.[2]

Har bir o‘tilayotgan mavzuni turli xil innovatsion texnologiyalar asosida tashkillashtirish mumkin. Masalan: Immunologiya darslarida “Fagositoz hodisasi. Fagositoz qiluvchi hujayralar” mavzusini o‘qitishda bumerang treningi metodidan foydalanib quyidagicha dars tashkillashtirishimiz mumkin. Bunda talabalar kichik

guruhlarga bo‘linadi va material tarqatiladi. Har bir guruh o‘z fikrlarini bayon qiladi va guruhlar o‘rtasida savol–javob olib boriladi hamda javoblar muhokama qilinadi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.

### **Birinchi guruh vazifasi.**

1. Fagositoz haqidagi ta’limotning yaratilishi.
2. Fagositoz jarayonining ahamiyati.

### **Ikkinchi guruh vazifasi.**

1. Fagositoz qiluvchi hujayralarning ahamiyati.
2. Fagositoz jarayoni amalga oshmaganda yuzaga keluvchi hodisalar haqida ma’lumot berish.

### **Uchinchi guruh vazifasi.**

1. Qaysi kasalliklarda fagositoz jarayoni amalga oshmaydi?
2. Fagositoz jarayoni to‘liq amalga oshganida va amalga oshmaganida organizm immun sistemasidagi o‘zgarishlar qanday bo‘ladi?

Bumerang treningi metodidan foydalanishning samaradorligi shundaki, bu metod talabalarni o‘z fikrlarini mustaqil bayon etishga, guruhlarda ishlashga o‘rgatadi.

Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, darslarda qiziqarli ma’lumotlardan foydalanish talabalarning mavzuga qiziqishi, darsdagi faolliklarini oshirish bilan birga, o‘z ustida mustaqil ishlash, qiziqarli ma’lumotlar to‘plashga, izlanishga undaydi. Talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi, shu bilan birga ularga ekologik, estetik, axloqiy tarbiyani shakllantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tolipova J.O. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar. Darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent -2011 yil.
2. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)